

INKLYUZIV TA'LIM VA UNING MOHIYATI

Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna

Toshkent Viloyati Pedagoglarini Yangi Metodikalarga O'rgatish Milliy Markazi, "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Inklyuziv ta'limda yuz berayotgan o'zgarishlar va bu ta'lim tizimini chuqurroq o'rganish. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini yanada rivojlantirish. Bu ta'lim shakli hozirgi kunda eng samarali qulay ta'lim tizimi sifatida o'z faoliyatini olib bormoqda. Inklyuziv ta'limning yutuqlari kundan kunga ortib bormoqda.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, anomal bolalar, tiflopedagogika, surdopedagogika, logopediya, integratsiyalash.

Respublikamizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevar qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ta'lim sohasidagi bu islohotlar bugungi kunda o'z samarasini bermoqda.

Mazkur huquqiy me'yoriy hujjatlar doirasi maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim-tarbiyasini ham qamrab olgan. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim amalga oshirilmoqda.

Biroq inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar yetarli emas. "Inklyuziv" va "integratsiyalashgan" atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan

birinchi qadamdir. Integratsiyalashgan ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud: A) Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin. B) Funktsional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funktsional muammolarni kamaytirishga qaratilgan. V) Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab-quvvatlaydi. G) Jamiyatga integratsiya qilish kabilar. Integratsiyalashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud: Umumta'lim muassasalarda komplekstibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo'lmaydi. Umumta'lim maktab pedagogi maxsus metodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi. Umumta'lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalar bo'lmaydi. Sinfda o'quvchilar soni 25 tadan-35 gacha yetadi va oqibatda ularning barchasiga ko'p vaqt ajrata olmaydi. Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo'lmaganligi sababli, imkoniyat topish qiyin. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tizimiga katta e'tibor berilmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlari inklyuziv ta'lim tizimiga katta ahamiyat berilmoqda va bu sohada ko'plab yutuqlarga erishmoqdalar. Konvensiyaning 6-moddasida shunday sathlar bor: "Tirik qolish va rivojlanish". Bu modda mos keluvchi ta'limga taalluqli. Rivojlantiruvchi ta'lim 29-moddada ko'rsatilgan: "Ta'lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltirilgan bo'lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak". 2-va 28-moddalar inklyuziv ta'limga tegishli bo'lib, ularda kamsitishning oldini olish, ta'lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo'yilgan. Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta'limda o'ziga xos o'rin tutadi. Bunday ta'lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalarini yaratadilar;
- ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o'quv materiallarini o'zlashtiradilar;
- tengqurlari bilan turli o'yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o'yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtini kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo'lishlari mumkin;
- do'stona muhitda do'st orttiradilar;

-turli ko'ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar. Boshqa bolalar esa do'stona muhitni yaratadilar;

-maxsus ehtiyojli bolalarga g'amho'rlik qiladilar, ularni turli o'yinlarga jalb qiladilar;

-sinf tadbirlarida ishtirok etadilar;

-tozalik va ozodalikni ta'minlaydilar;

-jamoada oldida ma'suliyat hissini rivojlantiradilar;

-didaktik va o'yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;

-o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir-birlarining ichki dunyolarini tushunishga o'rgatadilar;

-har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatini hisobga oladilar;

-har bir bolada hayotiy malaka va mustaqillikni shakllantiradilar;

-ishlarni tahlil qiladilar va baholaydilar;

-ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatadilar;

-barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar;

Demak: inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'uliyatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli hissa qo'shadigan munosib farzandlar bo'lib yetishishlariga katta umid bilan qaraladi. Mamlakatimizda maktab, litsey, gimnaziya, kollej kabi bilim dargohlari bilan birgalikda turli maxsus maktab internatlar, mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatayotganligi ham fikrimizning isbotidir. Ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlashdir.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta'limini uch xil ibora bilan ta'riflash mumkin, ya'ni:

-mos keluvchi;

-rivojlantiruvchi;

-inklyuziv;

Inklyuziv ta'lim muassasalari birinchi bo'lib Rossiyada 1980-1990-yillar paydo

bo'lgan. Inklyuziv ta'lim maxsus yordamga muhtoj bo'lgan turli toifadagi anomalligi bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarning birga ta'lim tarbiya olishlari imkonini beradi. Bu ta'lim tizimi maxsus yordamga muxtoj bolalarni muloqotga kirishishida, o'z tengdoshlari bilan fikr almashinishida, ota-onalarga amaliy yordam berishda, moddiy tomondan qiynalayotgan oilalarga har tomonlama qulaylik olib keldi. Anomallikning ham turli toifalari bor ayrim maxsus yordamga muhtoj bolalar birovning ko'magisiz harakatlana olmasligi, o'z ehtiyojlarini qondira olmasligi mumkin. Shuning uchun ham maxsus maktab internatlar faoliyat yuritib kelmoqda. Maxsus pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Eshitishida, tayanch-harakat sistemasida, ko'rishida, nutqida va aqliy faoliyatida nuqsonlari bo'lgan bolalarni rivojlanishi va o'sishini o'rganish uchun maxsus pedagogika bo'limlari o'rganadi. Surdopedagogika – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi. Oligofrenopedagogika-aqliy zaif bolalarni rivojlantirish o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi. Tiflopedagogika-ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Logopediya-nutqi shuningdek motor harakatlanish sohasida murakkab nuqsonlari bo'lgan bolalarni rivojlantirish va o'qitish masalalarini o'rganadi. Hozirda turli nuqsonlari bo'lgan bolalarni maxsus holda emas, balki umumiy o'z tengdoshlari bilan birga ta'lim olishini ta'minlash uchun inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirishga katta e'tibor berilyapdi. Inklyuziv ta'limni joriy qilishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi;
2. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili;
3. Bog'lanishning mavjud bo'lish tamoyili;
4. Markazlashtirilmagan bo'lish tamoyili;
5. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashuv tamoyili;
6. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili;
7. Malakaviylik tamoyili.

Bu tamoyillarning har biri inklyuziv ta'lim sohasini imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir maxsus yordamga muhtoj bola o'z huquqlari ga ega, bilim olish, fan olimpiyadalarida qatnashishi, turli sport musobaqalarida ham ishtirok etish huquqiga ega. Inklyuziv ta'lim oldida turli muammolar ham turibdi. Imkoniyati cheklangan insonlar ham juda ko'p yutuqlarga erishishgan. Inklyuziv ta'limning joriy etilishi ham nogironligi bo'lgan bolalarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Respublikamizning barcha hududlarida inklyuziv ta'lim tizimi joriy etib borilmoqda. Integratsiyalash bu imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim tarbiya berishdan tashqari

ularga ijtimoiy va sog'liqni saqlash xizmatlarini ham joriy qilishdir. Integratsiyalashgan bolalarga yordam berish maxsus pedagoglar va ular bilan birgalikda ularning ota-onalari birga shug'ullanadilar. Daniya va Shvetsiyada maxsus sinf o'quvchilari bilan faqatgina maxsus pedagoglar shug'ullanganlar. Italiyada integratsiyalashgan bolalarga maxsus pedagoglardan tashqari oddiy pedagoglar ham ishlashgan.

Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqayoqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lim tizimiga oid prezidentimiz "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" gi 13-oktabr 2020-yil qaror qabul qilindi. Qaror bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Bundan tashqari maxsus inklyuziv ta'lim laboratoriyasi ham ochildi. Mazkur laboratoriyaning asosiy vazifalaridan biri maktablarda inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlar yaratish, inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalardek barcha imkoniyatlarga ega va ular uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan va yanada ko'proq qulaylik yaratish uchun inklyuziv ta'limga katta e'tibor berilmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda inklyuziv ta'lim tizimida joriy etilayotgan bunday imkoniyatlar alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga ko'plab qulayliklar yaratib berdi. Imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish va ularni tarbiyalashga qaratilgan harakatlar albatta o'z natijasini berib kelmoqda. Bu ta'lim tizimi takomillashtirish uchun izlanishlar olib borilmoqda va turli yangiliklar yaratilmoqda. Bu kabi intilishlar va harakatlarga albatta har bir bola bilim olish, erkin fikrlay olish, o'zi xohlagan kasb egasi bo'lishida katta imkoniyat yaratadi. Ularning ham hamma orzulari amalga oshadi va bu uchun hamma imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kungacha ular ko'plab yutuqlarga erishganlar. Muhimi o'ziga bo'lgan ishonch, intilish va harakat orqali hammasiga erishishlariga ishonaman.

REFERENCES

1. Musayeva, G. K. (2022). Some Aspects of Teaching the Russian Language in National Groups. *Global Scientific Review*, 10, 70-75.
2. Musayeva, G. K. (2022). Methodology of teaching the Russian language in Uzbek groups. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 522-527.
3. Musayeva, G. (2022). Rus tilini o'rganish ahamiyati va o'qitishda interfaol usullardan foydalanish ko'nikmalari. *Ta'lim fan va innovatsiya*, 22(6), 171-174.
4. Yuldasheva, T., & Kadirova, K. (2020). Teaching Russian with Innovative Approach. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(7).
5. Юлдашева, Т. А. (2021). Методы исследования в методике преподавания русского языка. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
6. Umbetova, M. A., & Kubeysinova, U. T. (2022). Yosh basketbolchilarda kuch sifatini o'yin mashqlari yordamida rivojlantirish. *International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century*, 1(10), 111-116.
7. Кубейсинова, У. Т. (2021). О влиянии баскетбола на организм человека. *Инновационные направления массового развития физической культуры и спорта в современных условиях*, 1(1), 51-55.
8. Кубейсинова, У. Т. (2021). Специализированное развитие прыгучести и прыжковой выносливости баскетболистов, как важное условие обеспечения результативности бросков, выполняемых в прыжке. *Fan-Sportga*, (1), 35-37.
9. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang'ich ta'lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. *Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish*, 403(1), 18-19.
10. Кадилова, О. Х., Кадилова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. *Журнал филологических исследований*, 1(2), 156-160.
11. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 756-759.
12. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. *NeuroQuantology*, 12(20), 1907-1913.
13. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 188-192.
14. Илёсов, Б. А., & Кадырова, О. Х. (2019). Поэзии А. Блока в узбекских переводах. in *переводческий дискурс: междисциплинарный подход* (pp. 133-138).

15. Kadyrova, O. K. (2021). Foundations of artistic synthesis in the literatures of the west and the east at the present stage. *Innovative engineering and management research*, 10(01), 227-232.

16. Кадирова, О. Х. (2021). Использование учебного перевода как один эффективных приемов обучения русскому языку как иностранному в средней школе. *Современное образование и воспитание*, 1(1), 289-294.

17. Кадирова, О. Х. (2022). Мотивы свободы и одиночества в поэзии Лермонтова и Усмана Насыра. *Традиции и инновации в изучении и преподавании языков*, 1(1), 173-176.